

ONA TILI FANINI O'QITISHDA KONSTRUKTIVISTIK YONDASHUVNING AFZALLIKLARI

Xidirova Muxlisa Amirqulovna

Denov tumani 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ona tili fanini o'qitishda konstruktivistik yondashuvning afzalliklari yoritilgan. Konstruktivizmga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki faol izlanish va tajriba orqali egallaydi. Ushbu yondashuv ona tili darslarida mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning real hayot bilan bog'lanishga, tahlil va muhokama qilishga, hamkorlikda ishlashga o'rgatilishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Maqolada konstruktiv yondashuv asosida darslarni tashkil etishning amaliy misollari orqali bu uslubning o'quvchi faolligi va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: konstruktivizm, ona tili ta'limi, ta'lim yondashuvlari, mustaqil fikrlash, muloqot ko'nikmalari, real hayotga bog'liqlik, ta'lim samaradorligi, faol o'quvchi.

Zamonaviy ta'lim tizimi hamisha takomillashib, o'quvchilarni yanada samarali o'qitish usul va vositalarini izlamoqda. Ana shunday usullardan biri konstruktivistik yondashuvdir. Bu yondashuvning mazmun- mohiyati shundan iboratki, unda o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni faol o'zlashtiruvchi va shakllantiruvchi shaxs sifatida ko'riladi. Ayniqsa, ona tili fanini o'qitishda bu uslubning afzalliklari juda katta. Chunki tilni o'rganish jarayoni nafaqat grammatik qoidalarni yodlash, balki fikrlash, muloqot qilish va mantiqiy xulosa chiqarish bilan bog'liq murakkab jarayondir.

Konstruktivizm ta'lim nazariyasida o'quvchining shaxsiy tajribasi, ilgari egallagan bilimlari va faol ishtiroki asosida yana yangi bilimlar shakllantiriladi. Bu yondashuvga ko'ra, o'qituvchi bilimni tayyor holda yetkazib beruvchi emas, balki o'quvchiga mustaqil izlanish, mantiqiy xulosa chiqarish va real hayot bilan bog'lab tahlil qilish imkonini yaratadigan yo'lbo'shchi sifatida maydonga chiqadi.

Ona tili darslarida bu yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi, ijodiy yondashuvni rivojlantiradi va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

An'anaviy ta'limda, odatda, o'quvchilar ko'pincha tayyor qoidalarni yod oladilar va mashqlar orqali ularni mustahkamlaydilar. Konstruktivistik yondashuv esa o'quvchilarga so'zlarning ma'nosini, grammatik qonuniyatlarni va stilistik jihatlarni

mustaqil tushunish imkonini beradi. Masalan, murakkab gaplarning tuzilishini tushuntirishda o'qituvchi tayyor qoidani berish o'rniga, o'quvchilarga real matnlar ustida ishlashni, jummalarni tahlil qilishni va o'z xulosalarini chiqarishni taklif qiladi.

Natijada, o'quvchi o'zi izlanadi, turli variantlarni sinab ko'radi va mustaqil fikr yuritish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu esa ona tili fanining asosiy maqsadlaridan biri – fikrni aniq va lo'nda ifodalash ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Konstruktivizmga asoslangan darslarda o'qituvchi ma'ruzachi emas, balki yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. O'quvchilar bilimni tayyor qabul qilish o'rniga, o'zlari izlanib, muhokama qilib, xulosa chiqaradilar. Masalan, mavzuni tushuntirishda o'qituvchi savol va topshiriqlar orqali o'quvchilarning ilgari bilgan bilimlarini eslatib, yangi ma'lumotlar bilan bog'lash imkonini yaratadi. Misol uchun, "Gap bo'laklari" mavzusini o'qitishda o'quvchilarga matn berilib, undan turli gap bo'laklarini ajratish topshirig'i beriladi. Ular avval o'z tushunchalariga asoslanib ishlaydi, keyin esa o'qituvchi yo'l-yo'riq berib, to'g'ri xulosaga yo'naltiradi. Bu metod o'quvchilarning faolligini oshirib, bilimni mustahkam o'zlashtirishiga yordam beradi.

Til hayotiy vosita bo'lgani uchun uni o'rganishda real hayot bilan bog'lanish juda muhimdir. Konstruktivistik yondashuv orqali o'quvchilar dars davomida o'rganayotgan bilimlarini hayotiy misollar bilan bog'lab, uni amalda qo'llashni o'rganadilar. Masalan, rasmiy va norasmiy uslubni tushuntirishda o'qituvchi o'quvchilarga turli matnlarni taqdim etib, ularni solishtirishni, har birining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashni va qayerda qanday uslub qo'llash to'g'ri bo'lishini muhokama qilishni taklif qilishi mumkin. Bu usul nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

Konstruktivistik yondashuv doimiy hamkorlikni talab qiladi. Dars jarayonida o'quvchilar guruhlarda ishlash, bir-birining fikrlarini tahlil qilish, bahslashish va xulosa chiqarish imkoniga ega bo'ladilar. Bu ularning muloqot madaniyatini rivojlantirib, fikrlarini asosli va mantiqiy bayon qilishga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Қ. Таълимда инновацион технологиялар. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2019.
2. Ёдгоров Х. Ҳозирги замон педагогик технологиялари. — Тошкент: TDPU nashriyoti, 2020.
3. Жонсон Д., Жонсон Р. Ўқитишда ҳамкорлик технологияси. — Тошкент: О'qituvchi, 2017.
4. Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Bruner, J. *The Culture of Education*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1996.

6. Jonassen, D. H. *Constructivist Learning Environments: Case Studies in Instructional Design*. — Educational Technology Publications, 1999.
7. Dewey, J. *Experience and Education*. — New York: Macmillan, 1938.
8. G'ofurov, K. va boshqalar. *Ona tili o'qitish metodikasi*. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.
9. Xasanboyeva M., Matniyazova S. *Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy yondashuvlar*. — "Ilm sarchashmalari", 2021, №2.
10. Tohirova D. *Konstruktiv yondashuv asosida dars ishlanmalarini loyihalash*. — "Ta'lim va rivojlanish", 2022, №3.